



## O’ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MUSIQA SAN’ATI IJROCHILIGI

**Muallif:** D. Xamdamova<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** NamDU San’atshunoslik kafedrasи dotsenti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14465853>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o’zbek zamonaviy musiqasi hisoblangan estrada cholg’u ijrochiligi, estrada xonandaligi ijrochiligining rivojlanishi taraqqiyoti bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** estrada, zamonaviy musiqa, cholg’u, xonandalik, ijrochilik, san'at.

O’tgan asrning 70-yillariga kelib qo’shiqchiligidizning va musiqa madaniyatimizning yangi yo’nalishi, ya’ni estrada janri tarkib topdi. Bu esa san’atimizda yangilik deb qabul qilindi. O’zbek estradasining dastlabki qaldirg’ochlari yetishib chiqdi. B.Zokirov, L.Zokirova, K.Jalilova, B.Mavlonov, N.Zokirov, R.Sharipova, Yu.To’raev, S.Raximov, A.Ioshpe singari estrada xonandalari shular jumlasidandir.

Yuqorida tilga olingan kompozitor va xonandalar o’zbek estradasining maktabini yaratdilar. Estrada qo’shiqlari teleradio dasturlari, kino va saxnaviy asarlar, kontsertlar orqali ommalashdi va o’zining muxlislariga ega bo’ldi. Xatto xalqaro sahnalarda ham o’rnini topib oldi.

Mashhur estrada qo’shiqchisi, o’zbek estradasining so’nmas yulduzi Botir Zokirovning jaxon sahnalaridagi muvaffaqiyati o’zbek estrada san’atini jahonga tanitdi. Uning o’z ona tili bilan bir qatorda turli tillarda aytgan qo’shiqlari estradamiz jaxon saxnasiga chiqib olishida ko’prik bo’lib xizmat qildi.

Keyingi yillarda estrada ijrochilik san’atimiz yangi bosqichga ko’tarildi. Ayniqsa, 2020 yilda “O’zbek navo” gastrol-kontsert birlashmasining tashkil etilishi, qo’shiqlar bayramining o’tkazilishi, “O’zbekistonda estrada san’atini yanada rivojlantirish to’g’risida”gi Prezident farmonlari bu borada yuksalish yulini belgilab berdi.

«Ofarin», «Ona zamin yulduzları», «Nihol» sovrinlari ta’sis etildi. Yangi-yangi ijrochilar kashf etildi. Estrada jamoalari, guruxlari, alohida ijrochi yoshlari xalqaro festivallarda, tanlov va kontsertlarda muvaffakiyatga erisha boshladilar. O’zbek estradasining Farrux Zokirov va “Yalla”vokal – cholgu ansamblı, Mansur Toshmatov, Fulomjon Yokubov, Nasiba Abdullaeva singari ustoz ijrochilari ketidan yangi avlod est-rada vakillari barakali ijod qilmoqdalar. Yulduz Usmonova, Kozim Qayumov, Kumush Razzoqova, Nuriddin Xaydarov, Ravshan Nomozov, Azim Mullaxonov, Fiyos Boytoev, Mavluda Asalxo’jaeva, Yulduz Abdullaeva, Mardon Mavlonov, Sofiya Saftarova, Saloxiddin Azizboev, Mohira Asadova, Ozoda Nursaidova Gulbaxor Sulaymonova singari xonandalar shular jumlasidandir.

Hozirgi zamonaviy o'zbek estrada san'atining yorqin yulduzi bulmish Yulduz Usmonovning ijodi taxsinga sazovordir. Uning ijrosidagi o'nlab qo'shiqlar xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning sevimli qo'shiqlariga aylanib ketdi. Ayniqsa, "Xalqim", "Xalq bo'l, elim", "Xech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!", "Dunyo" singari qo'shiqlari mustaqillik yillarining eng yaxshi qo'shiqlari deb tan olindi. Uning xorijiy davlatlardagi gastrol-kontsertchi kishlari natijasida chet ellarda ham muxlislarining ortib borayotganligi fikrimiz dalilidir.[2]

Hozirda faoliyat ko'rsatayotgan yosh estrada guruxlari va xonandalarining ijodlari ham barakali bo'lmoqda. Rashid Xoliquov, Nilufar Raxmatova, Ilxom Farmonov, Sevara Nazarxon, Shaxlo Rustamova, Doston Ubaydullaev, Anvar Sanaev, Abdulaziz Karim, Toxir Sodiqov, Dilfuza Raximova, Anvar Faniev, Abdulla qurbanov, Nodir Lutfullaev singa- ri unlab yosh umidli estrada xonandalari ijodi bunga misol bula oladi.

Mustaqillik yillarida bolalar musiqiy estrada janri ham yangicha ko'zgu bilan namoyon bo'ldi. Bu sohada Nadim Norxo'jaev, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullaeva, Ali-sher Rasulov singari kompozitorlar faol ijodiy mehnat qilmoqdalar.

"Turkiston farzandimiz", "Sogлом avlod", "Xumo qushim", "Ramazon", "Ok terak- mi, ko'k terak", "Istiqlolim", "O'zim aylanay" singari qo'shiqlar misol bo'la oladi.

Bugungi kunda Sarvar Qoziev va "Kars" guruxi, "Toshkent", "Manzur", Muhammadjon Ro'zimuhammedov va "Sho fayz", Doniyor Mamedov va "Bayram", Abdulla Shomagrupoval "Nola", Rashid Xolikov va "SHaxzod", Sevara Nazarxon va "Sideriz", Tohir Sodiqov va "Bolalar", "Xo'ja", "Toj", "Setora" singari guruxlar hozirgi davr yoshlari estrada musiqasining asosiy bo'g'ini tashkil etadi.

Albatta, bugungi kundagi estradamiz yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklarini aytib utish joizdir. Chunki bu xaqda juda ko'p fikrlar bildirilmoqda. Televidenieda deb atlar u yushtirilmoqda, matbuotda chiqishlar qilinmoqda.

Bu borada o'ttiz yildan oshiq davrdan buyon barakali ijod kilib kelayotgan Farrux Zokirov raxbarligidagi xizmat kursatgan "Yalla" ansamblini misol qilish mumkin. Bu ansambl o'zining xalq ona ijrosi bilan bugungi kunda ham estafetani qullarida maxkam ushlab turibdi, bugungi kunning talabiga javob bermokda.

Hozirda turk, eron, arab, frantsuz, ingliz, nemis estrada musiqasidan foydalanib, o'zbekcha so'z qo'yib aytilayotgan qo'shiqlar ko'payib bormoqda. Bu albatta, achinarli xoldir. Yana bir tomoni, disket musiqasidagi ohanglar usuliga o'lchab, sayoz so'zlardan tashkil topgan, muallifi noma'lum she'rlardan ham foydalanilmoqda [3].

Bu albatta, qo'shiq saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada yuzlab esda qolmaydigan bir martalik yoki mavsumiy qo'shiqlar ko'payib bormoqda. Yana shuni aytib o'tish lozimki, milliy estrada ruhidagi qo'shiqlar ijrosiga qo'lurishda an'anaviy qo'shiqlarni va xalqimizning sevimli qo'shiqlarini, xalq bastakorligining, mashhur qo'shiqlarini estrada yo'liga solib, buzilgan xolda iじro etishlar ham uchramoqda. Agar xalqona ijro uslublariga tayanib, har biri jroni yaxshi uzlashtirib, ana shu ijrodan leytmotiv singari foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lurdi. Ushbu fikrlarni amalga oshirishda iestrada xonandalarining o'zlariga xavola etamiz.

Shu o'rinda horij tajribalariga e'tibor berish o'rinnlidir. Polyak pedagoglari, bolalarning musiqali salohiyatini ijodiy tafakkurini kuchaytiradigan ijodiy amaliyotga alohida e'tibor beradilar.

Polyak maktablari zamonaviy musiqiy tarbiya darslarida musiqa bilan tasviriy san'atlarning uyg'unlashuviga e'tibor beriladi. Shu maqsadda darslarda musiqa va tasviriy san'atning uyg'unlashgan shakllari, shu jumladan, audiovisual jihozлari yordamida kino, televidenie kabi turlari qo'llaniladi.

Evropa, Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi zamonaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda Estrada, ya'ni zamonaviy musiqaning shakl va tizimlarini tahlil qilib, ham ijobjiy, ham salbiy tomonlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ijobiy tomonlardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: musiqa materialining asosi sifatida xalq musiqasidan keng foydalanish; musiqa o'quvi, ritm, xotirani rivojlantirish, musiqa savodxonligini oshirish yuzasidan ommabop usullarni tadbiq etish, musiqa o'qituvchilarining pedagogik tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, o'qituvchilar musiqiy tayyorgarligining maqsadga muvofiq usullarini kidirib topish, ta'linda texnik vositalaridan keng miqyosdan foydalanish [6].

Xorijdagи zamonaviy musiqiy tarbiya sohasidagi salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o'qituvchilarining tayyorlash jarayonida, shuningdek, umumta'lim maktablarda yagona o'quv rejalarini va dasturlarining yo'qligida namoyon bo'lmoqda.

Jahon zamonaviy musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo'lgan turli maqsad va vazifalariga qaramasdan zamonaviy musiqiy tarbiyaning umumiyy tomonlarini ham ko'rsatish mumkinki — uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy (ommaviy) musiqa ijrosi tashkil qilish kerak.

Bolalar zamonaviy musiqiy tarbiyaning eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalarini ko'riklarini o'tkazish va boshqa chora- tadbirlar bolalar musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida jadal rivojlanishga olib boradi.

Hozirda, ISMEDan tashqari, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Yevropa Assotsiatsiyasi va Umumjahon xor federatsiyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish yurtimizning musiqa pedagogikasi, zamonaviy musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va mukammallashuvi uchun zarur bo'lgan ilg'or uslubiyotning egallahda muhim o'rinnutadi.

Musiqa sanati umumxalq sanatiga aylanib bolalar bog'chasi, musiqa maktablari, o'rta umummaktablar, o'quvchilar saroyi, madaniyat uylari,yoshlar ijodiy uylarida keng qo'llanib kelinmoqda.

Chet el klassik kompozitorlar hamda qardosh xalqlar kompozitorlari bilan bir qatorda O'zbekiston kompozitorlari va astakorlarining yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan asarlarini ijro etish uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan,

1.O'quvchining qaysi musiqa cholg'usiga moyilligini, uquvini, individual suhbatlashgan holda bilib olish lozim. Turli sabablarga ko'ra, hatto birinchi kus talabalari ham aqliy o'sish darajasi, musiqaga qiziqishlari, qobiliyatları va ruhiy kayfiyatları bilan bir-biridan farq qiladilar.

2. Cholg'ularning qaysi turi bo'lmasin, torli cholg'umi, puflab chalinadiganmi yoki urib chalinuvchi milliy cholg'ularni, o'qituvchi-ustoz birinchi darsdan boshlab uquvchiga cholg'ularning paydo bo'lish tarixi, diapazoni, ijro imkoniyatlari darajasi, shtrix (zarblar) haqida tushuncha berishi lozim. Musiqa cholg'usida ijro etishdagi holati

(postanovka) ga etibor berib, kuzatish vaqtida kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish ishlarini amalga oshirish zarur.

3. O'qituvchi uquvchining barmoq harakati, applikatura qoidalari, o'ng va chap qo'l harakati mutanosibligiga erishish, qo'l muskullari faoliyatiga alohida ahamiyat berish muhim o'rinni tutadi. Masalan, g'ijjak, qashqar rubobi, dutor, nay, chang va boshqa musiqa cholg'ularining ijrosida o'qituvchi uquvchidan barmoqlar harakatida erkin, muskullarni zo'riqtirmasdan ijro etishni shakkantirishi talab etiladi. Muskul zo'riqqanda qashqar rubobi ijrosida ovoz titrab, yoqimsiz eshitiladi hamda qo'llar tez charchaydi; chang ijrosida esa ovoz quruq va baland eshitiladi; g'ijjakda ovoz g'ijillab, notekis eshitiladi. Applikatura qoidalariiga rioya etib, erkin, ijro holatini to'g'ri egallasa, muskullar charchamaydi, ijrochi o'zini erkin tutib, asar xarakterini, mohiyati va mazmunini to'g'ri tushungan holda ijro etishga erishadi. Bu bilan cholg'uda badiiy ijro etish malakalarini puxta egallahsga asosiy va muhim zamin tayyorlagan bo'ladi.

4. O'qituvchi-ustoz uquvchiga ijro etilayotgan musiqa asarining g'oyasi, uning mazmunini atroficha tushuntirishi, musiqa asarining xarakteri, tempi, shakli, tuzilishi, janri, nyuansi, ansambl (fortepiano yoki orkestr jo'rligida bo'lsa), muallif to'g'risida ma'lumotlar berishi ijroning muvaffaqiyatlari chiqishiga xizmat qiladi. Aks xolda ijrochi asarning xarakteri va mazmunini to'liq yorita olmaydi. Bunday ijro tinglovchining qalbiga yetib bormaydi, qilingan mehnat zoe ketganligini anglatadi.

5. Estrada musiqa asarlari "raqs", "marsh" yoki "qo'shiq"mi qanday sur'at (temp)da yozilgan bo'lmasin, asar bilan tanishganda uning og'ir, vazmin sur'atda o'rgangandan keyingina uning o'z (tempi) sur'ati va badiiy ijrosi ustida ishlashga kirishish kerak bo'ladi. Bularga musiqa asarining dinamik belgilari, musiqaviy urg'ulari, qochirim, nola va asarda uchraydigan har xil bezaklar, uslub va usullar (shtrixlar)dan iborat bo'lishi mumkin. Bazan talabalar musiqa asarining boshidan oxirigacha bir xil dinamik ko'rinishda ijro etadilar. Badiiylikka erishish uchun musiqiy mashqlarni qayta-qayta takrorlash o'quvchi saviyasini mustahkamlaydi, o'rganganlari ongida muhrlanib qoladi. Shuning uchun mashq'ulotlarning dastlabki davridan to'g'ri bajarishga o'rgatish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Mirziyoev Sh.M. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori.

Sadirov J.S., Qahhorov N.B., Abdurashidova N.A. "Qo'shiqlar hrestomatiyasi". Toshkent: TDPU. 1996. Aden G. "Xrestomatiya vokalno-pedagogicheskogo repertuara (dlyabariton i basa)". M. 1966.

Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Dasrslik. Toshkent. Yangi avlod asri. 2009.

Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2008.

Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008.

48 b.